

ICHKI ISHLAR ORGANLARI PSIXOLOGINING KASBIY KOMPETENSIYASI MUAMMOSINING EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIK TADQIQI

Bekmatova Mohinur Rasulbek qizi

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Avezov Olmos Ravshanovich

Annotatsiya: *Maqolada ichki ishlar organlari psixologining kasbiy kompetentlikni rivojlantirish hamda ular bilan aholi o'rtasida bo'ladigan munosabatlarda xodimlarning kasbiy mahorati va muomala madaniyatining o'ziga xos o'rni, bu jarayonlarda yuzaga kelayotgan ayrim kamchiliklar va ularni o'z vaqtida bartaraf etishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlar o'z ifodasini topgan. Ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy kompetentligi mazmuni, uni rivojlantirish shakl va usullari, kasbiy kompetentlik sifatlari hamda ularning mohiyati izohlab o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, kreativ, nostandart fikrlash, xulq-atvor, kasb, psixolog, rivojlanish.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы развития профессиональной компетентности психологов органов внутренних дел, а также особая роль профессиональных навыков и культуры общения сотрудников в их взаимоотношениях с населением, некоторые недостатки, возникающие в этих процессах и их своевременное устранение. Целевые меры были реализованы. Раскрываются содержание профессиональной компетентности сотрудников органов внутренних дел, формы и методы ее развития, качества профессиональной компетентности и их сущность.*

Ключевые слова: *компетентность, креативность, нестандартное мышление, поведение, профессия, психолог, развитие.*

Abstract: *The article describes the development of professional competence of psychologists of internal affairs bodies and the specific role of professional skills and communication culture of employees in their relations with the population, some shortcomings that arise in these processes and targeted measures aimed at their timely elimination. The content of professional competence of employees of internal affairs bodies, forms and methods of its development, qualities of professional competence and their essence are explained.*

Keywords: *competence, creative, non-standard thinking, behavior, profession, psychologist, development.*

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda hukm surayotgan murakkab va tahlikali sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni

mustahkamlash qanchalik muhim vazifa ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz. Shu bois, keyingi yillarda ichki ishlar tizimini isloh qilishga ustuvor e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini ta'minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligi, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash maqsadida: Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qaroriga muvofiq Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi tasdiqlandi.

Bunda ichki ishlar organlari xodimlarini «Inson qadri uchun» tamoyili asosida davlatning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, o'z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalash orqali aholining chinakam roziligiga erishish; ichki ishlar organlari xodimlarida xizmat vazifalariga halol, vijdonan, Vatan va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, yuksak mas'uliyat bilan yondashish, jamiyatda umume'tirof etilgan odob- axloq normalariga so'zsiz amal qilish tuyg'usini shakllantirish bo'yicha ustuvor vazifa qilib belgilandi.

Har qanday ish faoliyatida muayyan bir aholi qatlami, ya'ni turli kasb sohasi vakillari hamda fuqarolar bilan o'zaro muloqot jarayoniga kirishiladi. Ular o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarning qay darajada samarali bo'lishi bevosita shaxslarning bir-birini tushuna olishi hamda o'zaro samimiy tarzda muloqot o'tkazishiga bog'liq bo'ladi. Jumladan, ichki ishlar organlari xodimlari ham fuqarolar, jamiyatimiz a'zolari bilan sutkaning har qanday vaqtida, har qanday joyda ular bilan birgalikda uzluksiz ravishda xizmat olib boruvchi vakolatli davlat organi vakillari hisoblanadilar. Fuqarolarimiz kundalik munosabatlarida, ish faoliyatlarida, shaxsiy-oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan har qanday muammo yoki biron-bir tushunarsiz holatlarga aniqlik kiritish va ularga qonuniy yechim topish maqsadida IIO xodimlari bilan muloqotga kirishadilar. Ichki ishlar organlarida xizmat olib borayotgan xodimlarning kasbiy faoliyati hamda ushbu faoliyatda yuzaga keladigan jarayonlar esa o'ziga xosligi, serqirraligi, keng doiraga egaligi bilan qolgan faoliyat turlaridan ajralib turadi. Huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash, surishtiruv-tergov jarayonlarida hamda fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash borasidagi vazifalarni amalga oshirish, jamiyatning turli xil toifadagi, turli xil harakterdagi fuqarolar bilan o'zaro muloqotga kirishish zaruratini keltirib chiqaradi hamda xodimlardan yuksak kasbiy mahorat va muomala madaniyati kabi muhim sifatlarni mavjud bo'lishini taqozo etadi.

ASOSIY QISM

XXI asr psixologiyasida ichki ishlar organlari psixologlari kasbiy kompetentligi muammosini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi kasbiy kompetentlik metodologiyasiga dahldor ba'zi bir psixologik xususiyatlarni nazariy

jihatdan izohlashga harakat qildik. Ko'pgina adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kasbiy kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

Dunyo va respublikamizdagi psixologik o'quv markazlarida insonni tahlil qilish, uni har tomonlama rivojlantirishda turli xil psixologik usullardan foydalanish tobora jadalashmoqda.

V.I.Baydenko ta'kidlaganidek, so'nggi paytlarda "kompetentlik" atamasi o'qitish sifatining integrativ xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiluvchi va ta'lim jarayoni kategoriyasining natijasi vazifasini bajaradi. U G'arb ta'limi (pedagogik) va kvalimetrik ilmiy-nazariy va amaliy ishlanmalarda qo'llaniladi. Kompetensiya maqsadlarni belgilashning yangi turi ta'lim tizimlarini loyihalashdir. Bu, mohiyatan, bozor qiymatiga e'tibor qaratadigan bitiruvchilarning ijtimoiy tayyorgarligini tashqi baholashga baholashning faqat (yoki asosan) akademik normalaridan o'tishni belgilaydi. Bu o'zgarish ta'limni ham universitetlarni ham uzoq muddatli va keng miqyosda mehnat bozorida yangicha bir ko'rinishda namoyon bo'lishini anglatadi, shuningdek, ta'lim modeli — ta'lim turini hayot orqali o'zgartirish demakdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, mahalliy va xorijiy adabiyotlarda «Kompetentlik» tushunchasini ta'riflashga yagona yondashuv mavjud emas.

Kompetentlik so'zining ma'nosi lotinchadan olingan bo'lib, «sompeto» «erishayapman, munosibman» degan ma'nolarni anglatadi hamda malum tushuncha, tajriba va faoliyat turidan xabardorligini bilishini bildiradi. «Kompetensiya» atamasi faoliyatda mujassamlangan psixologning kompetentligi, biror kishi yaxshi xabardor bo'lgan soha yoki masalada shaxsning amaliy layoqatliligi hamda kasbiy qobiliyatning tizimli rivojlanganlik darajasini anglatadi. Shunga qaramay, aksariyat mualliflar kompetentlikni faoliyat yoki harakatning samarali ishlashi bilan bog'liq ekanini ta'kidlashgan.

Shunday qilib, kompetentlik insonning yuksak xislatlaridan biri bo'lib, uning shakllanishi zamonaviy ta'lim-tarbiyaning asosi hisoblanadi.

Jumladan, Evropa va amerikalik tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikni amaliy jihatlarini, ya'ni muhitga ta'sir etuvchi (I.Borg, M.Muller, V.I.Lupandin), vazifani muvaffaqiyatli uddalashga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi (O.O.Gonina, M.Kaplan, L.Nugust); faoliyat tuzilmasidagi alohida xatti-harakatlarni amalga oshirishni ta'minotchisi (A.A.Blaginin, G.Birkgoft), amaliyotga tatbiq etiladigan usullarni bilish jarayonlariga qo'llovchi (S.P.Destra, S.Dollinger) sifatida o'rganishgan.

Rossiyalik olimlardan L.I.Ansiferova, D.N.Zavalishina, N.V.Kuzmina, S.V. Pazuxina, A.K.Markova, E.P. Ilin, A.A.Derkach, V.G.Zazikin, I.A.Zimnyaya, Yu.G.Tatur, N.A. Aminov va boshqalar tomonidan so'nggi yillarda kompetentlik va kompetensiya masalalariga ilmiy yondashuvlarni uchratish mumkin.

Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, kompetensiya – samarali ish jarayonining asosida yotgan insonlarning o'zgaruvchan kayfiyat va o'zini tutish holatining o'lchanishidir. Shunday qilib, bo'lg'usi o'qituvchi-pedagog ish jarayonining samarasi, uning samarali xulq ko'rsatkichidan kelib chiqadi.

Kompetensiya – shaxsning qobiliyat, qiziqish, motivasiya kabi sifatlarini o'z ichiga oluvchi kuzatilayotgan xulq-atvor modellarining kompleksi sifatida tasvirlanadi. Kompetensiya ta'rifi yuqoridagi barcha psixologik atamalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Nazariy manbalarning tahliliga ko'ra amaliyotchi psixologlarning "kompetensiya" va "kompetentlik" bo'yicha aniq talqin juda kam uchraydi. Bu esa ushbu atamani zamonaviy psixologik mazmundagi muammolarni o'rganishda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

"Kompetentlik" tushunchasi dastlab kognitiv psixologiya sohasi vakillari tomonidan qo'llanila boshlagan. Ushbu tushuncha shaxsning o'zini-o'zi anglashi, o'z-o'zini hurmat qilishini belgilovchi omil bo'lib hisoblanadi va shaxsning umumiy xususiyatlari hamda uning kasbiy faoliyati xususiyatlaridan ko'ra ko'proq bog'liqligini bildiradi. Ijtimoiy psixologiyaga oid nazariyalarda "kompetentlik" tushunchasi aniq bir kasbga xos sifatlar, har bir shaxs erishishi lozim bo'lgan xususiyatlar deb qaraladi. Kompetentlik bu erda kasbiy professionalizmning bir qismi sifatida tushuniladi. Deyarli barcha lug'atlarda "kompetentlik" va "kompetensiya" muammolari alohida bir kategoriya sifatida o'rganiladi. Kompetentlik ta'riflari bir-biriga juda o'xshash va bir-birini takrorlaydi, "Kompetentlik" uchun yagona talqin bo'lmasa-da, bu konsepsiya "har qanday tashkilot yoki mutaxassisning bilimlarga egalik qilish vakolatlari (huquq va burchlari) yig'indisi" deb talqin qilinadi. Shunday qilib, "kompetensiya" – bu "kompetentlik" so'zidan olingan termin bo'lib, insonning bilim, ko'nikma va malakalarini to'g'ri anglay olishiga, "kompetentlik" esa semantik tomondan birlamchi yo'nalish bo'lib, ularning intro (insonning ichki imkoniyatlari) jamlanmasi, tizimi, shaxsning ma'lum bir tajribalari "jamlanmasi" ni bildiradi.

Dj.Raven o'z ilmiy tadqiqotlarida "kompetentlik" atamasiga umumiy holda ta'rif beradi. Uning ta'rifiga ko'ra, kompetentlik – ma'lum bir sohadagi muayyan harakatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos qobiliyat bo'lib, yuqori ixtisoslashgan ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Ixtisoslashgan ko'nikmalar deganda fikrlash usullari, shuningdek, o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qilishga aytiladi.

N.B.Moskvinaaning fikricha "kompetentlik" asosiy xarakterga ega bo'lib, uni mazmuni, inson bilishi va amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan yangi kashfiyotlarni o'zlashtirish bilan bog'laydi.

N.B. Moskvina o'z tadqiqotlarida "Kompetentlik"ni uch jihatini keltirib o'tadi:

- semantik, shu jumladan, tushunishning adekvatligi, ijtimoiy munosabatlarni tushunishni madaniy shakllarini baholay olish;

- amaliy - turli ko'rinishdagi sotsial munosabatlarni adekvat baholay olish, maqsad, vazifa, normalarini malum bir sharoitda kerakli darajada shakllantirish va ijobiy amalga oshirish.

I.A.Zimnyaya "Kompetentlik"ni 3 guruhini keltirib o'tadi:

- o'z-o'ziga shaxs sifatida va hayot faoliyatining sub'ekti sifatida qarashligi;
- insonning boshqa kishilar bilan o'zaro ta'sir munosabati bilan bog'liqligi;
- inson faoliyati bilan bog'liq kompetensiyalar uning barcha turlari va shakllarida namoyon bo'lishi. Bizning fikrimizcha, amaliyotchi-psixologlarning kasbiy tayyorgarligini tashkil etish jarayonida I.A.Zimnaya asarlari juda muhim sanaladi.

Kompetentlik keng ma'noda qobiliyat bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ko'nikma, malaka va boshqalar. Kompetentli shaxs - etarli malakaga, bilim va imkoniyatlarga ega shaxs hisoblanadi.

So'nggi yillarda kompetentlik muammosi yangicha talqinlarda namoyon bo'lmoqda. Ko'pgina olimlar nafaqat kompetentlik balki professional kompetentlik haqida mutaxassisning kasbiy mehnat talablariga muvofiqligi ko'rsatkichi sifatida fikr yuritishgan (E.F.Zeer, A.K.Markova va boshqalar).

Shaxsning professional kompetentlik muammosi bo'yicha K.K.Platonova, M.A.Ribakova ilmiy-nazariy izlanishlarida amaliyotchi psixologlarning faoliyati nuqtai nazaridan o'z-o'zini anglashi, kasbiy foydalik darajasi, o'z kasbiga moslik darajasi, kasbiy malaka kabi asosiy psixologik kategoriyalarning mazmunini anglashga yordam beradi. Ushbu yo'nalish doirasida professional yondashuv usullari ham takomillashtirildi.

Yana bir yo'nalishi vakillari asarlarida (B.G.Ananev, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn va boshqalar) kasbiy faoliyatning turli ko'rinishlarida individual psixologik xususiyatlar va shaxsiy sifatlarini bevosita o'rganilgan.

Keyingi yo'nalish kasbiy mahoratning psixologik asoslarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lib, mehnat psixologiyasining yo'nalishlaridan biri sanaladi (A.K.Markova). Ushbu yo'nalish doirasida kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish, malaka oshirish, kasbiy kompetentlik, kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish shart-sharoitlari va omillari o'rganiladi. Psixologning kasbiy kompetentligi haqidagi dastlabki fikrlar XX asrning 90-yillarida to'g'ri keladi. Inson evolyusiyasining har bir bosqichida psixologlarning jamiyat uchun qiladigan vazifalarini aniq belgilab beradigan ehtiyoj paydo bo'ldi. Arastu o'z sohasida kasb egasi bo'lish uchun zarur bo'lgan bilimlarning o'qituvchi shaxsini rivojlantirishdagi roliga katta ahamiyat bergan. Aristotelning fikricha, etuk mutaxassisni belgisi bu- bolalarni o'qitishga bo'lgan qobiliyatning mavjudligidadir.

Hozirgi zamon psixologiga qo'yiladigan talablarni o'rganish maqsadida biz amaliyotchi psixologlarni kasbiy kompetentligini tarixiy jihatdan o'rganishga qaror qildik. Bunda biz modellashtirish usulidan foydalandik. Tadqiqotchi I.B.Novik fikriga ko'ra "ob'ektni bilish uni modellashtirishni anglatadi", chunki, har qanday model, ma'lum darajada, voqelikni aks ettirishning o'ziga xos shakli hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda modellashtirish ilmiy bilishning muhim usuli bo'lib, tadqiqot ob'ektining alohida, maxsus tanlangan jihatlarini, shu jumladan, uning yashirin xususiyatlarini, muayyan bilim sohasidagi belgilarni, faktlarni, bog'lanishlarni, munosabatlarni aks ettiruvchi oddiy va vizual shaklda o'rganish usuli sifatida qo'llaniladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, psixologlarning kompetentlik va ularning tarkibiga kiruvchi muhim komponentlar, mexanizmlar, tamoyillarni shakllantirish, shuningdek, o'quv faoliyatining kasbiy yo'nalganligini ta'minlashga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish ichki ishlar organlari tasarrufidagi ta'lim muassasalarining o'quv tizimini takomillashtirishning muhim vazifalaridir. Yuqorida aytilgan mulohazalardan kelib chiqqan holda, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda ta'lim jarayonini ham mazmunan, ham shaklan o'zgartirish,

bunda ta'lim oluvchilarga faqat ma'lum bir kompetensiyalar bo'yicha bilim berish emas, balki butun harbiylashtirilgan ta'lim jarayoni davomida ular asosida faoliyat olib borishni ta'minlash nazarda tutiladi. Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi ta'lim muassasalari bitiruvchilarini soha bo'yicha kasbiy tayyorlashga qo'yiladigan zamonaviy talablarni amalga oshirish ta'limning yaxlit yakuniy natijasi – ichki ishlar organlariga yuklangan vazifalarni xodimlar samarali bajarishlari uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arziqulov D.N., Dusanov N.E. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy madaniyati: O'quv qo'llanma. – T., 2010.
2. Abdullayeva Sh.X. Pedagog professional kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. (DSc) Avtoreferat. – Toshkent, 2019. – 61 b.
3. Baratov Sh.R. O'zbekistonda psixologik xizmat tashkil etishning ijtimoiy-psixologik va ilmiy-amaliy asoslari: Psix.fan.dok... dis. – T., 1997. – B. 13-15
4. Xoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. - T.: «O'qituvchi», 1996. -79-b. Xoshimov K., Mavlonova R. Pedagogika. / Darslik. – T., 2001. – 517 b.
5. Toshimov R., G'oziev E. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. – Toshkent, 2004. – 132 b.
6. Avezov O.R., SH.R. Barotov, L.YA. Olimov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. "O'zbekiston faylasuflari jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019 yil. 492 bet.
7. Avezov O.R. L.YA. Olimov, A.M. Nazarov. Shaxs psixologiyasi. Darslik. "Durdona" nashriyoti Buxoro. 2019 yil. 340 bet.